

JISMONIY MADANIYAT YO'NALISHI TALABALARINING INGLIZ TILIDA KASBIY KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MASHQLAR AHAMIYATI

Shahobiddinova Dilnavoz Bahodir qizi

Namangan davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

E-mail: Shahobiddinovadilnavoz329@gmail.com

[Tel:+998934911909](tel:+998934911909)

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalari uchun ingliz tilidagi kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda mashqlar tizimining roli va samaradorligi yoritilgan. Zamonaviy metodlar, innovatsion yondashuvlar va ESP-asosidagi mashg'ulotlarning afzalliklari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Kasbiy kompetensiya, kommunikativ yondashuv, jismoniy madaniyat, ESP, interaktiv mashqlar, til kompetensiyasi, metodika, lingvodidaktika, motivatsiya, faoliyatga asoslangan o'qitish

THE IMPORTANCE OF EXERCISES IN DEVELOPING PROFESSIONAL COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH AMONG PHYSICAL EDUCATION STUDENTS

Abstract: This article discusses the role and effectiveness of the exercise system in the formation of professional communicative competence in English for students of the physical education department. The advantages of modern methods, innovative approaches and ESP-based training are highlighted.

Keywords: Professional competence, communicative approach, physical education, ESP, interactive exercises, language competence, methodology, linguodidactics, motivation, activity-based learning

ЗНАЧЕНИЕ УПРАЖНЕНИЙ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ У СТУДЕНТОВ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

Аннотация: В статье рассматриваются роль и эффективность системы упражнений в формировании профессионально-коммуникативной компетенции на английском языке у студентов факультета физического воспитания. Отмечены преимущества современных методов, инновационных подходов и обучения на основе ESP.

Ключевые слова: Профессиональная компетентность, коммуникативный подход, физическое воспитание, ESP, интерактивные упражнения, языковая компетенция, методика, лингводидактика, мотивация, деятельностное обучение.

KIRISH

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitishga qo'yilayotgan talablar ortib bormoqda. Jumladan, 2021-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida ingliz tilini o'rganishni ommalashtirish to'g'risida"gi Prezident qarori mazkur yo'nalishda sifatli o'quv-uslubiy faoliyatni tashkil etishni ta'minlashni nazarda tutadi. Shu bilan birga, kasbiy ta'limda ingliz tilini o'rgatish jarayonida kasbiy-kommunikativ kompetensiyani shakllantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi. Jismoniy madaniyat yo'nalishidagi talabalar uchun ingliz tili nafaqat umumiy kommunikatsiya vositasi, balki kasbiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular bo'lg'usi mutaxassis sifatida xalqaro musobaqalarda, seminar va treninglarda ishtirok etishi, sport faoliyatini xorijiy hamkorlarga tushuntirishi zarur bo'ladi. Shu sababli, til kompetensiyasining rivojlanishi ularning kasbiy tayyorgarligida muhim omilga aylanmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlarda kasbiy kommunikativ kompetensiya shakllanishida interaktiv mashqlar va faoliyatga asoslangan yondashuvlarning ahamiyati alohida ta'kidlanmoqda. Masalan, Harmer ta'kidlashicha, chet tili mashg'ulotlarida mashqlar nafaqat til bilimini oshirish, balki real kommunikativ vaziyatlarni modellashtirishning eng samarali vositasidir. Yana bir muhim jihat shundaki, ESP (English for Specific Purposes) konsepsiyasi asosida tayyorlangan mashqlar tizimi jismoniy madaniyat yo'nalishidagi talabalarni aniq kasbiy kontekstga tayyorlaydi va ular uchun mazmunli motivatsiya yaratadi. Shu sababli, ushbu maqolada aynan mashqlar tizimining kasbiy-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi o'рни va imkoniyatlari batafsil yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mavzuga oid tadqiqotlarda turli mualliflar til kompetensiyasini shakllantirish metodikalarini tahlil qilgan. Harmer (2007) faol mashqlar tizimini kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida baholagan. U mashg'ulotlarda dialoglar, rolikli o'yinlar va taqdimotlar ishlatilishi til ko'nikmalarini sezilarli oshirishini ta'kidlaydi (1). Hutchinson va Waters (1987) ESPning lingvodidaktik asoslarini ishlab chiqqan va kasbiy ehtiyojlarga moslashgan mashqlar metodikasini taklif qilgan. Ularning ta'kidlashicha, ESP materiallari

talabanning bevosita kasbiy faoliyatini aks ettirgan hollarda natija samarador bo'ladi (2). Rod Ellis (2008) mashqlarni topshiriqqa asoslangan (task-based) shaklda tashkil etish kommunikativ vazifalarni samarali yechishga yordam berishini ilmiy asoslab bergan. U mashqlarni real kontekstga yo'naltirish muhimligini urg'ulaydi (3). David Nunan (2004) ham shunga yaqin xulosalarga kelgan. U faoliyatga asoslangan mashg'ulotlar nafaqat til kompetensiyasini, balki nutq strategiyalarini rivojlantirishini ko'rsatgan (4). O'zbekiston olimlari orasida Ravshanov B.S. kasbiy-kommunikativ kompetensiya tushunchasini milliy ta'lim tizimi uchun moslashtirib, uning tarkibini lingvistik, pragmatik va strategik ko'nikmalar sifatida ajratgan (5). Mirzayeva D.A. esa mashqlar tizimida kommunikativlik va kasbiy yo'naltirishning integratsiyasi muhim ekanligini alohida urg'ulagan (6). Mazkur tadqiqotlarning umumiy xulosalaridan ko'rinadiki, mashqlarni to'g'ri tanlash va ularni kasbiy kontekstga moslashtirish talabanning motivatsiyasini oshiradi va real faoliyatga tayyorlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqorida keltirilgan ilmiy manbalar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, jismoniy madaniyat yo'nalishidagi talabalar uchun ingliz tilidagi mashqlar tizimini yaratishda quyidagi asosiy mezonlar muhim:

- mashqlar ESP konsepsiyasiga mos bo'lishi,
- faoliyatga asoslangan yondashuvni qo'llashi,
- real kommunikativ vaziyatlarni modellashtirishi,
- sotsiokultural elementlarni qamrab olishi.

Masalan, sport mashg'ulotlarini tushuntirish, xavfsizlik qoidalarini ta'riflash, mashhur sportchilar faoliyatini taqdim etish kabi topshiriqlar nutq kompetensiyasini rivojlantiradi va talabalarda kasbiy ishonch hosil qiladi. Rod Ellisning fikricha, "topshiriqqa asoslangan mashqlar tilni o'rganish jarayonini sun'iy mashg'ulotdan real faoliyatga aylantiradi" (3). Bu yondashuv ayniqsa sport yo'nalishida dolzarbdir. Shu o'rinda muallif tomonidan ishlab chiqilgan mashqlar tizimi quyidagilarga yo'naltirilgan:

- sport terminologiyasini amaliy qo'llash,
- taqdimot va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish,

-interaktiv usullar yordamida kasbiy kompetensiyani oshirish.

Bunday tizim, Harmer va Hutchinsonlarning tavsiyalari bilan uyg'unlashgan holda, jismoniy madaniyat sohasida ingliz tilini samarali egallash imkonini beradi.

1. Reproduktiv mashqlar- tayyor til materialini takrorlash va mashq qilishga qaratilgan. Misol tariqasida

Quyidagi dialogni keltirish munkun:

- Dialogni rol bo'lib o'qish
- O'qilgan matndan asosiy iboralarni takrorlash
- Berilgan namunadan foydalanib gap tuzish

Ahamiyati esa reproduktiv mashqlar talabaga leksik va grammatik modellardan to'g'ri foydalanishni o'rgatadi va ularni nutqga tayyorlaydi. Sport mashg'ulotini ingliz tilida izohlash uchun tayyor namunali gaplarni takrorlash.

2. Productiv mashqlar- talabaning mustaqil ijodkorligini rag'batlantiruvchi mashqlar. Misollar:

- Erkin suhbat tuzish
- Berilgan mavzuda taqdimot tayyorlash
- Kasbiy vaziyatga mos rolli o'yin o'ynash

Productiv mashqlar nutq faoliyatining barcha turlarini rivojlantiradi va kasbiy vaziyatda o'z fikrini ifodalash qobiliyatini mustahkamlaydi. Jismoniy madaniyat talabasi mashg'ulot jarayonida jarohat oldi degan vaziyatda ingliz tilida tushuntirish va tavsiya berish.

3. Prezentativ mashqlar- yangi til materialini taqdim qilinadi va o'quvchilar uni tushunib olishga intiladi.

Misollar: Yangi terminologiyani vizual material asosida tushuntirish; sport jihozlari nomlarini slaydda ko'rsatib o'rganish; termin va iboralarni kasbiy kontekstda o'rganishga yordam beradi. Masalan, sport anjomlarining inglizcha nomlari va ularni ishlatish bo'yicha izoh berish.

4. Tuzilmaviy mashqlar (drill mashqlar)- grammatik va leksik birliklarni avtomatizatsiyalashga qaratilgan. Misollar: gap tuzish ketma-ketligi mashqlari; qisqa savol-javoblar; strukturaviy almashtirish (substitution drills). Talabaning

grammatik to'g'ri gapirish ko'nikmasini shakllantiradi. Sport faoliyatini ifodalash uchun "have to", "must", "can" kabi modal fe'llarni mashq qilish.

5. Kommunikativ mashqlar- talabalarning erkin va maqsadli muloqotini rag'batlantiradi. Misollar: rolly o'yinlar; erkin muloqotli debatlar; guruhli loyihalar va intervyu tayyorlash. Kasbiy kommunikativ vaziyatlarda tilni mustaqil qo'llash ko'nikmasini rivojlantiradi. Masalan, "Sport zalida mehmonlarga xizmat ko'rsatish" mavzusida rolly suhbat.

6. Integrativ mashqlar- Bir vaqtning o'zida bir nechta til ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar. Misollar: matn o'qib, asosiy g'oyani og'zaki izohlash; video ko'rish va eshitganini qayta hikoya qilish; sport mashg'uloti videosini sharhlash. Eshitish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalarini uyg'un rivojlantiradi. Sportchi chiqishini tomosha qilib, uning texnikasini ingliz tilida ta'riflash.

7. Interaktiv mashqlar- talabalar o'rtasida faol muloqotni tashkil qilishga asoslangan. Misollar: jamoaviy loyiha; aqliy hujum (brainstorming); savol-javob muhokamalari. Bir-biridan o'rganish va jamoaviy fikr almashish ko'nikmalarini shakllantiradi. "Kasbiy treningni qanday tashkil qilish mumkin?" mavzusida guruhli muhokama va shu kabilar mashq turlariga yaqqol misol bo'la oladi.

**Kasbiy-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi
mashq turlari va ularning pedagogik vazifalari**

Mashq turi	Vazifasi	Kutilyotgan natija
Reproduktiv mashqlar	Yangi til birliklarini mustahkamlash va avtomatlashtirish	Talaba sport faoliyatiga oid asosiy grammatik va leksik modellardan to'g'ri foydalanishni o'zlashtiradi
<u>Productiv mashqlar</u>	<u>Mustaqil fikr va matn yaratish</u>	<u>O'z kasbiy faoliyatini</u> ingliz tilida erkin va izchil ifodalash ko'nikmasi shakllanadi

Kommunikativ mashqlar	Real vaziyatlarda erkin muloqotni tashkil qilish	Talaba kasbiy vaziyatlarda erkin muloqot qilish va savol-javoblarga moslashish qobiliyatini rivojlantiradi
Integrativ mashqlar	Bir necha til ko'nikmalarini parallel shakllantirish	Eshitish, o'qish, gapirish va yozish kompetensiyasi kompleks ravishda shakllanadi
Tuzilmaviy mashqlar	Leksik va grammatik birliklarni to'g'ri qo'llashni mashq qilish	Sport terminlarini va strukturaviy shakllarni to'g'ri ishlatish ko'nikmasi mustahkamlanadi
Interaktiv mashqlar	Jamoaviy va faol o'rganishni rag'batlantirish	Talabalar orasida o'zaro yordam, bilim almashish va birgalikda muhokama yuritish kompetensiyasi shakllanadi
Prezentativ mashqlar	Yangi bilimni kontekstual tarzda tushuntirish	mashqlarYangi bilimni kontekstual tarzda tushuntirishSportga oid termin va iboralarning ma'nosi, qo'llanish joyi va kasbiy ahamiyatini chuqur anglash imkoniyati yaratiladi

Yuqoridagi jadval asosida talabalarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasi rivojlanishida mashqlar turining mazmunli va tizimli taqsimoti muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir mashq turi o'zining maxsus pedagogik vazifasiga ega bo'lib, ularning kompleks qo'llanishi talabalarni real kasbiy vaziyatlarga tayyorlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, integrativ va interaktiv mashqlar ularning motivatsiyasini oshirish va jamoaviy muloqotni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

XULOSA

Ushbu maqolada tahlil qilingan ilmiy manbalar va metodologiyalar jismoniy madaniyat yo'nalishidagi talabalar uchun kasbiy-kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda mashqlar tizimining o'рни beqiyos ekanini ko'rsatdi. ESP asosidagi faoliyatga yo'naltirilgan mashqlar talabalarni nafaqat umumiy til ko'nikmalariga, balki kasbiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi. Muallif tomonidan taklif etilgan yondashuv esa real vaziyatlarni modellashtirish va sotsiokultural kontekstni integratsiya qilish orqali mavjud usullarni boyitadi va yangilaydi. Faoliyatga asoslangan, interaktiv va kommunikativ mashqlar yordamida talabalar faqat grammatik qoidalarni emas, balki kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan real kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantiradi. Xususan, ESP konsepsiyasiga tayangan mashqlar sport terminologiyasini amaliy qo'llash, mashg'ulot jarayonini tushuntirish va sog'liq xavfsizligi bo'yicha tavsiyalar berish kabi professional vazifalarni samarali bajarishga tayyorlaydi. Harmer, Hutchinson va Ellis tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, topshiriqqa asoslangan va integrativ mashqlar talabalarning o'zaro muloqotini rag'batlantirib, ularni yuqori motivatsiyaga undaydi. O'zbekiston olimlari, jumladan B.S. Ravshanov va D.A. Mirzayeva ishlari esa ushbu jarayonni milliy ta'lim kontekstida metodik asoslashga imkon berdi. Maqolada muallif tomonidan taklif etilgan yondashuv — ESPga asoslangan bosqichli mashqlar tizimi — mavjud metodikalarni boyitadi va jismoniy madaniyat sohasida ingliz tilini o'qitishga amaliy yangilik sifatida xizmat qiladi. Mazkur yondashuvning asosiy yangiligi shundaki, u kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda sport sohasining kasbiy xususiyatlarini hisobga oladi, terminologiyani real vaziyatlar bilan bog'laydi va integrativ ko'nikmalarni rivojlantiradi. Umuman olganda, mazkur

natijalar nafaqat jismoniy madaniyat yo'nalishida, balki boshqa kasbiy ta'lim sohalarida ham chet tili o'qitish sifatini oshirishga, talabalarni xalqaro kasbiy muloqotga tayyorlashga xizmat qilishi mumkin. Shu bois mazkur tadqiqot va metodik tavsiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. Pearson Education Limited, 2007. – p.134.
2. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-centred Approach. Cambridge University Press, 1987. – p.42.
3. Ellis R. The Study of Second Language Acquisition. Oxford University Press, 2008. – p.301.
4. Nunan D. Task-Based Language Teaching. Cambridge University Press, 2004. – p.55.
5. Ravshanov B.S. Kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning lingvodidaktik asoslari. Toshkent, 2018. – 74-bet.
6. Mirzayeva D.A. Chet tilini o'qitishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish texnologiyalari. Toshkent, 2019. – 58-bet.